


“500/220/110/10 kV Namangan Nimstansiyasi” Loyihasi

Notexnik Hisobot

Ishlab chiquvchi:

“O’MET” AJ
Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Osiyo ko‘chasi, 42-uy
info@uzbekistonmet.uz

`

Hujjat haqida ma’lumotlar

Loyiha nomi	“500/220/110/10 kV Namangan Nimstansiyasi” Loyihasi
Hujjat nomi	Notexnik hisobot
“Juru”ning loyiha havolasi	UZB_Namangan
Mijoz	O‘zbekiston MET
“Juru”ning loyiha menejeri	Nikola Devis
“Juru”ning loyiha direktori	Jo’shqinbek Ismoilov

Hujjat nazorati

Nashr	Nashr sanasi	Tavsifi	Muallifi	Tekshirildi	Tasdiqlandi
1.0	2026 yil 15 yanvar	Notexnik hisobot	Marina Shiraeva	Nikola Devis	Nikola Devis
2.9	2026 yil 24 yanvar	Manfaatdor tomonlarning izohlarini inobatga olgan holda yangilandi	Marina Shiraeva	M Lupton	Nikola Devis

Voz kechish

Notexnik hisobot (“Hisobot”) “Juru” tomonidan tayyorlangan. Hisobotdagi ma’lumotlar joriy holatni aks ettirsa-da, “Juru” ushbu Hisobotda keltirilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi yoki to‘liqligi to‘g‘risida aniq yoki nazarda tutilgan hech qanday bayonot yoki kafolat bermaydi va noto‘g‘ri yoki ko‘rsatilmagan ma’lumotlar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.

Ushbu Hisobot faqat O‘MET uchun tayyorlangan. O‘MET ushbu Hisobotda keltirilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi yoki to‘liqligi to‘g‘risida aniq yoki nazarda tutilgan hech qanday bayonot yoki kafolat bermaydi. O‘MET ushbu Hisobotdagi ma’lumotlarning birortasini mustaqil ravishda tasdiqlamagan va undagi har qanday ma’lumot, noto‘g‘ri yoki ko‘rsatilmagan ma’lumotlar uchun hech qanday javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi. Hisobot O‘MET mulki bo‘lib qoladi.

Mundarija

1 Kirish 5

1.1 Asosiy ma’lumotlar 5

1.2 Loyiha haqida umumiy ma’lumot 6

2 Loyihaga ehtiyoj va muqobil variantlar 7

2.1 Loyihaga ehtiyoj 7

3 Loyiha ta‘sirini qanday baholadik? 8

3.1 Baholash asoslari 8

3.2 Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish 9

4.3 Yer ajratish, majburiy ko‘chirish va iqtisodiy faoliyatga ta’sir 13

4.4 Madaniy merosga ta’sirlar 14

4.5 Ishchilarning salomatligini muhofaza qilish va xavfsizligi 14

4.6 Ishchilarning salomatligini muhofaza qilish, xavfsizligi va yashash sharoitlari 14

4.7 Ijtimoiy ta’sirlar 15

5 Loyiha yuqorida keltirilgan yumshatish choralari qanday amalga oshiriladi? 15
6 Xulosa 16
7 Glossariy 18

Jadvallar ro’yxati

1-jadval: Shikoyatlarni ko‘rib chiqish muddati 10

Rasmlar ro’xati

1-rasm: Loyihaning umumiy ko‘rinishi 5

Qisqartmalar ro‘yxati


TH	Ta’sir hududi
CLO	Mahalliy aholi bilan aloqalar bo’yicha mutaxassis
EI	Ekologik va Ijtimoiy
YeTTB	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki
ETB	Ekologik ta’sirni baholash
EMM	Elektromagnit maydonlar
EITB	Ekologik va ijtimoiy ta’sirni baholash
EIBR	Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi
EIS	Ekologik va ijtimoiy siyosat
IXA	Ilg’or xalqaro amaliyot
SHKM	Shikoyatlarni ko’rib chiqish mexanizmi
HR	Kadrlar
XMK	Xalqaro moliya korporatsiyasi
XMT	Xalqaro mehnat tashkiloti
ISO	Xalqaro standartlashtirish tashkiloti
TTR	Tirikchilikni tiklash rejasi
LLC	Mas’uliyati cheklangan jamiyat
O’MET	“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari”
NTH	Notexnik hisobot
O&M	Ekspluatasiya va texnik xizmat ko‘rsatish
MMXT	Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi
LAOB	Loyihani amalga oshirish bo‘limi
ShHV	Shaxsiy himoya vositalari
MTHR	Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejasi
NS	Nimstansiya

1 Kirish

1.1 Asosiy ma’lumotlar

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (“YeTTB” yoki “Bank”) mamlakatning elektr uzatish tarmog‘i uchun mas’ul bo‘lgan davlat energetika kompaniyasi — “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ (O’MET) ga 500/220/110/10 kV “Namangan nimstansiyasi” (“Loyiha”) qurilishini moliyalashtirish uchun mablag’ ajratmoqda (1-rasm).

1-rasm: Loyihaning umumiy ko‘rinishi



YeTTB “Juru Ltd.” (“Juru”) kompaniyasini ekologik va ijtimoiy baholashni (EIB) amalga oshirish hamda milliy ETB doirasida manfaatdor tomonlarga axborotni oshkor qilish jarayonini qo‘llab-quvvatlash va YeTTBning 2024 yilgi Ekologik va Ijtimoiy Siyosatini (EIS 2024) hamda unga tegishli EI Talablariga (EIT) muvofiqlikni ta’minlash maqsadida notexnik hisobotni (NTH) (ushbu hujjat) va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejasi (MTHR)ni tayyorlash uchun jalb qilgan.

Ushbu NTH ekologik va ijtimoiy (EI) baholash jarayonining yakuniy natijalari va xulosalarini, shu jumladan jamoatchilik bilan maslahatlashuvlar va axborotni oshkor qilish jarayoni natijalarini sodda va tushunarli tarzda taqdim etishga qaratilgan.

YeTTB ushbu Loyihani “B” toifasiga kiritgan. “B” toifadagi loyihalar uchun EIS 2024 talablariga muvofiqlikni ta’minlash maqsadida ekologik va ijtimoiy baholash (EIB) o‘tkazilishi hamda tegishli

boshqaruv rejalarini ishlab chiqish talab etiladi. Ushbu NTH nusxasini O’MET va YeTTB veb-saytlarida tanishish mumkin:

Savollar yoki izohlar quyida ko‘rsatilgan aloqa kanallari orqali ham yuborilishi mumkin.

O’MET	**Loyihani amalga oshirish guruhi**
Manzil: “O’MET” AJ, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Osiyo ko‘chasi, 42-uy Email: info@uzbekistonmet.uz. Telefon: +998 71-236-6035	Mas’ul shaxs: Azizbek Batirov Email: azabotirov@gmail.com Telefon: +998998527991

1.2 Loyiha haqida umumiy ma’lumot

Loyiha maydoni Namangan shahridan taxminan 8 km uzoqlikda joylashgan. Loyiha maydonining shimolida, taxminan 780 metr masofada qishloq xo‘jaligi yerlari joylashgan. G‘arbda, taxminan 885 metr masofada Kosonsoy daryosi oqib o‘tadi, undan o’tib taxminan 1 350 metr masofada Quyuqmozor qishlog’i joylashgan. Janubi-sharq tomonda, taxminan 400 metr masofada Bo’ston turar-joy hududi mavjud bo‘lib, janub tomondan maydon qishloq xo‘jaligi yerlari bilan chegaralangan. Nimstansiya (NS) maydoniga kirish shimol va sharq tomondan mavjud shag‘alli yo‘llar orqali amalga oshiriladi, ushbu yo‘llar milliy avtomobil yo‘llari tarmog‘i bilan yaxshi bog‘langan.

Namangan NS hududida quyidagi uskunalar o‘rnatiladi:

- Boshqaruv binosi (OPU)
- 500 kV, 220 kV va 110 kV ochiq taqsimlash qurilmalari
- Ikki dona 500/220/10 kV transformator
- Ikki dona 220/110 kV transformator
- Ehtiyot qismlar ombori / ma’muriy bino
- Nazorat-o‘tkazish punkti (qo‘riqlash posti)
- Sanitariya bloki

Nimstansiya loyihasi Havo izolyatsiyali taqsimlash qurilmalari (AIS) texnologiyasidan foydalangan holda isbotlangan texnologiyalar asosida ishlab chiqiladi. Nimstansiya tegishli milliy va xalqaro texnik standartlarga javob beradi. Ochiq taqsimlash qurilmasi konfiguratsiyasi 3/2 avtomatik o‘chirgich konfiguratsiyasiga (ikkita asosiy shinasiz, uchta avtomatik o‘chirgich bitta ichida joylashgan) asoslanadi; muqobil variant sifatida esa 4/3 avtomatik o‘chirgich konfiguratsiyasi (uchta sxemani to‘rtta avtomatik o‘chirgich ulash) ham ko‘rib chiqiladi. Bu umumiy ekologik va ijtimoiy baholash (EIB) xulosasiga ta’sir qilmaydi, chunki har ikkala konfiguratsiya ham o‘rganilgan hudud doirasida ishlatilishi mumkin.

Qurilish ishlari quyidagilardan iborat:

- Qurilish ishlari – yangi poydevorlar uchun poydevor ustunlarini o‘rnatish, maydon drenaj tizimini qurish, poydevor ishlari va himoya to’siqlarni qurish (masalan, transformatorlar uchun).
- Uskuna o‘rnatish – uskunalarni maydonga yetkazib berish (shu jumladan transformatorlar shaklida mumkin bo‘lgan nostandart yuklar). Maydonga uskunani poydevorga o‘rnatish uchun kichik kranlardan foydalanish talab qilinishi mumkin.
- Ishga tushirish – elektr uskunalar va SCADA o‘lchov-nazorat tizimlari nimstansiya operatorlari xonasida maxsus pudratchilar tomonidan o‘rnatiladi va keyin ular to‘g‘ri ishlashini ta’minlash uchun ishga tushiriladi. Boshqaruv tizimlarini sinash ishga tushirish davomida amalga oshiriladi.

Loyihani ishga tushirish va qurilish bosqichi taxminan 12 oy davom etadi, undan so‘ng 3 oy sinov ishlari amalga oshiriladi. Loyiha sikli 4 bosqichdan iborat: qurilishdan oldingi bosqich, qurilish, ekspluatatsiya va demontaj. Qurilish ishlari faqat nimstansiya chegarasi ichida amalga oshiriladi. Asosiy bajariladigan ishlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: maydonni tozalash, transport vositalari uchun kirish yo‘llari, qurilish ishlari, po‘lat konstruktsiyalarni yetkazib berish va o‘rnatish (masalan, kranlar), transformatorlarni yetkazib berish va ishga tushirish. Ishchilar yaqin shaharlardagi mavjud turar joylarda joylashtiriladi. Hozirgi vaqtda qurilish uchun suv manbai noma’lum bo‘lib, yo‘l bo‘ylab joylashgan aholi yashash punktlaridan yoki yer osti suvlarini ishlatish rejalashtirilmagan. Qurilish materiallari va uskunalar nimstansiyaga milliy yo‘llar orqali yetkaziladi. Qurilish uchun ishchi kuchi maksimal cho‘qqi davrida 200 kishidan oshmaydi va undan kamroq ham bo‘lishi mumkin. Qurilish vaqtida mahalliy aholi uchun cheklangan ish imkoniyatlari mavjud bo‘lishi mumkin. Nimstansiyaning ekspluatatsiya va texnik xizmat ko‘rsatish uchun O’METning mintaqaviy operatori javobgar bo’ladi.

2 Loyihaga ehtiyoj va muqobil variantlar

2.1 Loyihaga ehtiyoj

Loyihaning asosiy maqsadi – rivojlanayotgan qayta tiklanuvchi energiya elektr stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyani milliy elektr tarmog‘iga uzatishni qo‘llab-quvvatlashdir. Loyihani amalga oshirish, shuningdek, uzatish tarmoqlarining ishonchliligi, samaradorligi, barqarorligi, elektr energiyasi ta’minoti sifati va xavfsizligini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qiladi.

2.2 Muqobil variantlar

Loyiha maydoni joylashuvi bo‘yicha muqobil konsepsiyalar yer egalari hamda mavjud inshootlar va mulkka bo‘ladigan ta’sirni kamaytirish maqsadida ko‘rib chiqilgan.

Loyihani qurmaslik bo‘yicha “hech narsa qilmaslik” varianti mumkin bo‘lgan ekologik va ijtimoiy (EI) ta’sirlardan qochish imkonini beradi; biroq, bu 2020–2030 yillarda O‘zbekistonda elektr ta’minotini kafolatlash bo‘yicha mamlakatning Konsepsiyasi va qayta tiklanuvchi energiyaga o‘tish maqsadlarini amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi.

Tarmoqni kengroq mustahkamlash bo‘yicha amalga oshiriladigan strategik muqobil variant mavjud emas. Yangi Namangan nimstansiyasi 500 kV tarmoqni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

3 Loyiha ta’sirini qanday baholadik?

3.1 Baholash asoslari

EIBda milliy me’yoriy-huquqiy baza, hamda YeTTBning 2024-yildagi Ekologik va Ijtimoiy Siyosati (EIS 2024) talablari, qo‘llab-quvvatlovchi Ekologik va Ijtimoiy Talablar (EIT), Jahon Banki Guruhining Atrof-muhit, Mehnatni muhofaza qilish va Xavfsizlik bo‘yicha Yo‘riqnomalari (umumiy), sektor bo‘yicha yo‘riqnomalar (Uzatish liniyalari), xalqaro ekologik konvensiyalar, Xalqaro Mehnat Tashkiloti va BMTning asosiy mehnat konvensiyalari hamda Ilg’or Xalqaro Amaliyot (IXA) inobatga olingan. EI Baholashni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Juru quyidagi faoliyatlarni amalga oshirgan:

- Buyurtmachiga korporativ EI masalalari bo‘yicha axborot to‘plash maqsadida Axborot so‘rovini (AS) yuborish.
- Loyiha va buyurtmachi hujjatlarini, jumladan loyiha boshlanishi haqida dastlabki hisobotini hujjatlar asosida tahlil qilish.
- Namangan NS maydoniga quyidagi maqsadlarda borish:
    - Maydon sharoitida EI masalalarini tushunish
    - EI xususiyatlarining mavjudligi yoki yo‘qligini tasdiqlash hamda NSni qurilish maydoni bo‘yicha qabul qilingan taxminlarni tekshirish
    - Bo‘ston mahallasiga borib, aholi loyiha haqida xabardor qilinganligini va mahalla yetakchilari bilan muloqot qilishganligini aniqlash
- O’MET nomidan “Juru Ltd.” tomonidan taqdim etilgan milliy Ekologik ta’sirni baholash (ETB) hujjatini ko‘rib chiqish
- Ochiq manbalarda mavjud bo‘lgan hamda O’MET tomonidan taqdim etilgan axborotni tahlil qilish.

Ta’sirlarni yumshatish va boshqarish choralari “oldini olish, kamaytirish/minimallashtirish, yumshatish va kompensatsiya” iyerarxiyasiga muvofiq aniqlangan bo‘lib, ta’sir darajasini maqbul darajagacha (qoldiq ta’sir darajasi) tushirishga qaratilgan. EIB doirasida aniqlangan yumshatish va boshqarish choralari loyihaning qurilish bosqichi uchun ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi (EIBR) hamda loyiha ekspluatatsiya bosqichi uchun ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi (EIBR) tarkibiga kiritilishi lozim. Loyihani Amalga Oshirish Bo‘limi (LAOB) tomonidan tayyorlanadigan hujjatlar rivojlanish siklining turli bosqichlarida Pudratchi va O’MET tomonidan ekologik va ijtimoiy (EI) majburiyatlar hamda talablar bo‘yicha axborot almashinuvi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Barcha pudratchilar EIBR talablarini amalga oshirish uchun zarur tartib-taomillar mavjudligini namoyish etishlari shart. “O’MET” AJ va YeTTB yoki ularning vakillari xavf xususiyatiga mos ravishda ishlarning ESMP doirasidagi talablariga muvofiqligini muntazam auditdan o‘tkazadi. LAOB YeTTBning 2024-yildagi EIS, EIT1 talablari, milliy qonunchilik hamda IXAga muvofiq nazorat va boshqaruv choralarini amalga oshirish uchun o‘zining Ekologik va Ijtimoiy Boshqaruv Tizimini (EIBT) ishlab chiqadi.

3.2 Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish

Texnik-iqtisodiy asoslash, milliy ETB jarayoni hamda EIB jarayoni doirasida mahalliy aholi va boshqa manfaatdor guruhlar (birgalikda “manfaatdor tomonlar”) bilan maslahatlashuvlar o‘tkazildi.

Loyiha milliy ETB jarayoni davomida turli manfaatdor tomonlarga xatlar yubordi, ommaviy uchrashuvlar hamda yakka tartibdagi uchrashuvlar tashkil etdi, shu jumladan 2025-yil oktyabr oyida jamoatchilik eshituvini o‘tkazdi.

Rasmiy taqdimot Kosonsoy tumani hokimligida o‘tkazildi va unda mahalliy davlat hokimiyati vakillari ishtirok etdi. Eshituv bayonnomasi hokim o‘rinbosari va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan imzolandi hamda tasdiqlandi. Ikkinchi majlis Bo’ston mahalla maktabida o‘tkazilib, unda yetti nafar mahalliy vakillar (“Yettilik faollari”) va faol fuqarolar, jumladan Loyiha ta’siriga uchragan shaxslar (LTUSh) hamda cho’ponlar ishtirok etdi. Ishtirokchilar loyiha bo‘yicha ijobiy munosabat bildirdilar, mahalliy infratuzilma uchun kutilayotgan foydalarni qayd etdilar hamda ularga 25 ta axborot bukleti tarqatildi.

- Namangan viloyati Investitsiyalar boshqarmasiga (O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi) tashrif buyurildi va Loyiha haqida axborot berildi. Tanlangan maydonda loyihani amalga oshirish bilan bog’liq muammolar aniqlanmadi.
- Namangan viloyati Kadastrlar palatasiga tashrif buyurildi va Loyiha hududida yer resurslaridan foydalanish bo‘yicha asosiy axborot olindi.

Quyidagi qo‘shimcha manfaatdor tomonlar bilan yozma (xatlar orqali) aloqa o‘rnatildi.

- O‘zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi
- Madaniyat va meros vazirligi
- “Uztransgaz” AJ
- “Uzbektelekom” AJ
- “Uzsuvta’minot“ AJ
- Namangan viloyati Kadastr agentligi bo‘limi

NS joylashuvi bo‘yicha hech qanday e’tiroz kelib tushmadi.


3.3 Qanday qilib muammolar, masalalar yoki savollar — “shikoyatlar”ni bildirish mumkin

Har qanday manfaatdor tomonlar loyiha doirasida o‘zlarida paydo bo‘lgan muammolar, masalalar yoki savollar (“shikoyatlar”)ni “shikoyatlarni ko’rib chiqish mexanizmi” (ShKM) orqali bildirishlari mumkin. ShKMda barcha shikoyatlarni qabul qilish, tekshirish va ularga javob berish kabi loyiha majburiyatlari belgilab berilgan. ShKMdagi bosqichlar 2-rasmda ko‘rsatilgan va quyida tushuntirilgan. Shikoyatlarni quyidagi usullar orqali bildirish mumkin:

Bevosita Loyihaning xodimlariga uchrashuvlar yoki loyiha hududiga tashriflar vaqtida murojaat qilish.

Telefon qo‘ng‘iroqlari orqali (aloqa ma’lumotlari 1-betda keltirilgan).

- Yozma shaklda (SMS, elektron pochta, mobil ilovalar, xatlar, yozma so‘rovlar orqali)
- Shikoyat shaklidan foydalanish
- Tuman Hokimiyati, Bo’ston mahallasi va Quyuqmozor qishlog‘idagi shikoyat qutilari hamda loyihaning ish maydonlariga kirish joylarida joylashgan shikoyat qutilari orqali (qurilish bosqichi davomida).



Shikoyat mexanizmi **barcha ma’lumotlarning maxfiyligini qat’iy ta’minlaydi, jumladan barcha murojaatchilarning shaxsiy ma’lumotlarini** ham. Barcha shikoyatlar **anonim tarzda yuborilishi mumkin.** Agar shikoyatchi taklif qilingan yechim/javobdan norozi bo‘lsa, u shikoyatni hal qilish uchun boshqa huquqiy choralarni qo‘llash huquqiga ega.

1-bosqich: Har qanday aloqa vositasi orqali shikoyat qabul qilingach, Shikoyat bo’yicha Menejer shikoyatni shikoyatlar jurnaliga kiritadi, shunda barcha bildirilgan muammolar/savollar tekshirilishi va javob berilishi ta’minlanadi.

2-bosqich: Shikoyat qabul qilinib, ro‘yxatga olingach, shikoyatchiga yozma bildirishnoma yuboriladi. Unda shikoyatni tekshirish uchun taklif qilingan muddat ko‘rsatiladi, bu murojaat turiga va javob qabul qilishning dastlabki vaqtiga bog‘liq bo‘ladi. Har bir shikoyat shikoyat shakli va jurnal orqali qayd etilib, monitoring qilinadi.

3-bosqich: YeTTB LAOBning EI jamoasining belgilangan a’zolari Loyihaning EIB bosqichi davomida shikoyatlarni qabul qilish va monitoring qilish uchun mas’ul bo‘ladi. Shikoyat shakli aniqlangan manfaatdor tomonlarning joylashuvi, Afzal hisoblangan til va aloqa imkoniyatlariga asoslanib tayyorlanadi. Javoblar shikoyatchiga mos til — ya’ni o‘zbek yoki rus tilida beriladi.

4-bosqich: Shikoyatlarning yechimi shikoyatchiga rasmiy tarzda yozma shaklda yetkaziladi. Agar shikoyatchi yozma javobni ololmasa, unga telefon orqali murojaat qilinadi va shikoyat natijalari haqida ma’lumot beriladi. Quyidagi jadvalda shikoyatlarga javob berish muddatlari ko‘rsatilgan. Agar shikoyatchi javobdan norozi bo‘lsa, apellyatsiya berish mumkin. Bundan tashqari, shikoyat mexanizmi orqali shikoyat berish shikoyatchining milliy huquqiy tizimga murojaat qilish huquqini cheklamaydi; agar shikoyatchi olingan javobdan qoniqmasa, u bu yo‘l bilan ham yechim izlash huquqiga ega.

1-jadval: Shikoyatlarni ko‘rib chiqish muddati

Bosqich	Muddat

Shikoyatni qabul qilish va ro‘yxatga olish	0-kun
Shikoyat qabul qilinganini shikoyatchiga tasdiqlash	Shikoyat topshirilganidan keyin - 3 ish kunidan kechikmay
Qabul qilingan shikoyatni baholash/tekshirish	Shikoyat topshirilganidan keyin - 14 ish kunidan kechikmay
Shikoyatchiga javob berish	Baholash yakunlanganidan keyin 3 ish kunidan kechikmay
Agar shikoyatchi oldingi javobdan norozi bo‘lsa, shikoyatni qayta baholash	Shikoyatchi noroziligini bildirganidan keyin - 14 ish kunidan kechikmay

Agar shikoyatlarni tekshirish vaqti murakkab shikoyatlar yoki boshqa omillar sababli uzayadigan bo‘lsa, shikoyatchiga ushbu kechikish haqida xabar beriladi, javob berish uchun yangilangan kutilayotgan muddat tavsiya qilinadi va muntazam ravishda yangilangan ma’lumot taqdim etiladi.

4 Ekologik va ijtimoiy ta’sirlar hamda ularni yumshatish choralariga oid umumiy ma’lumot

4.1 Loyihaning potensial ijobiy ta’sirlari

EITBda quyidagi potensial ijobiy ta’sirlar aniqlandi:

- Kichik miqdorda vaqtinchalik ish o‘rinlari yaratilishi (shu jumladan mahalliy aholi va ayollar uchun 15 km radiusda ishga joylashtirishni ustuvorlashtirish), bu **mahalliy aholini ishga qabul qilish va mahalliy xaridlar rejasi** orqali muvofiqlashtiriladi
- Kichik miqdorda mahalliy xaridlar va biznes imkoniyatlari (ovqat yetkazib berish, haydovchilik, turar joy berish, mahalliy materiallarni sotish: sement, qurilish asboblari)
- Toza energiya ishlab chiqarishga o‘tishni rag‘batlantirish maqsadida barqaror va turli manbalarga ega elektr tarmog‘i

Qo‘llab-quvvatlash tadbirlari – Mahalliy xaridlar va ish o‘rinlarini maksimal darajada oshirish maqsadida, Pudratchi 15 km radiusdagi mahalliy jamoa a’zolarini yordamchi lavozimlar (masalan, haydovchilar), malakasiz va qisman malakali ishlar uchun ishga qabul qilishga e’tibor qaratgan Mahalliy Ishga Qabul va Xarid Siyosatini tayyorlaydi.

4.2 Ekologik va biologik xilma-xillikka ta’sirlar

Loyiha shunday loyihalashtirilganki, u hech qanday turar joy mulklariga ta’sir qilmaydi, shuning uchun qurilish va ekspluatasiya ishlari mahalliy hududdagi havoning sifati (chang), shovqin, yerosti suvlari darajasi, suv mavjudligi, tuproq sifati, suv sifati, mahalliy transport harakati va chiqindilarni

boshqarish xizmatlariga ta’siri deyarli sezilmaydi. Bu ta’sirlar keyingi bo‘limda tavsiflangan IXAga muvofiq boshqariladi.

Loyiha xavfli materiallardan foydalanish yoki ularni noto‘g‘ri boshqarish natijasida salbiy ekologik ta’sirlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Qurilish bosqichi davomida EMM (elektromagnit maydon) ta’sir ko‘rsatmaydi, chunki elektr uskunalari shu bosqichda ishga tushirilmaydi. Nimstansiya bilan bog‘liq EMM darajalari nimstansiya chegarasidan 25 m masofada me’yoriy chegaralardan oshmasligini ko‘rsatdi.

Nimstansiya ekologik himoyalangan hududlardan (milliy yoki xalqaro) tashqarida joylashgan.

Maydonga tashrif davomida biologik xilma-xillik bo‘yicha tekshiruv o‘tkazildi, yer tekshirildi va qishloq xo‘jaligi faoliyati (bug‘doy ekish / chorvachilik) natijasida sezilarli darajada o‘zgartirilgan deb tasniflandi.

Biologik xilma-xillik bo‘yicha maydondagi tekshiruv natijasida quyidagilar ma’lum bo‘ldi:

- Hudud toshloq, unumdorligi past va sug‘orilmaydi.
- Markaziy Osiyo toshbaqasi (Testudo horsfieldii) yoki boshqa xavf ostidagi sudralib yuruvchilar turlariga xos inlar yoki boshqa yashash joyi belgilari aniqlanmadi.
- Noyob yoki himoyalangan o‘simlik turlari qayd etilmadi va Loyiha maydonida bunday turlar uchun mos yashash muhitlar kuzatilmadi.
- Sichqonlarning inlari va odatiy qush fauna turlari (to‘rg‘aylar, ko’k kaptar, qarg‘alar) kuzatildi, ularning hech biriga himoya maqomi berilmagan. Bu yashash muhiti hech qanday maxsus himoya qilinadigan tur uchun mos emas deb hisoblandi.

Dala kuzatuvlari, yashash muhiti sharoitlari va tegishli mutaxassislar bilan o‘tkazilgan maslahatlashuvlar asosida Loyiha maydonida hech qanday Muhim yashash muhiti yoki ustuvor biologik xilma-xillik obyektlari aniqlanmadi. Maydonning sezilarli darajada o‘zgartirilganligi va mos yashash muhiti belgilarining yo‘qligi sababli, qo‘shimcha biologik xilma-xillik bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish zarur deb hisoblanmaydi.

Ishchilarni mahalliy hududda vaqtincha joylashtirish natijasida ular kasallik xavfi va talab darajasiga javob bermaydigan yashash sharoitlariga duch kelishi mumkin. Shu sababli, ishchilar YETTB/XMKning Ishchilarni joylashtirish bo‘yicha yo‘riqnomalariga muvofiq sharoitlarda yashashini ta’minlash uchun loyiha uchun alohida yashash joylarini boshqarish rejasi ishlab chiqiladi.

Yumshatish chorasi – Ta’sirlarni boshqarish va yumshatish uchun IXA usullari Qurilish bosqichi uchun Ekologik va Ijtimoiy Boshqaruv Rejasida (EIBR) belgilanadi va u Pudratchi tomonidan amalga oshiriladi. Pudratchi bilan tuziladigan shartnomaga bu talablarni majburiy bajarishni nazarda tutuvchi maxsus bandlar kiritiladi. IXAga quyidagilar misol bo‘la oladi:

- iloji boricha uskunalarni har qanday retseptorlardan kamida 200 m uzoqlikda joylashtirish,
- belgilangan kirish yo‘llaridan foydalanish,
- ta’sirga uchragan hududlarda qurilishdan oldingi o‘simlik qoplamini tiklash,


- chang va shovqinni nazorat qilish choralarini qo‘llash,
- ish hududlarida va kirish yo‘llarida tezlik cheklovlariga rioya etilishini ta’minlash,
- tungi vaqtda ishlashdan saqlanish;
- litsenziyaga ega chiqindilar bilan ishlovchi pudratchilardan foydalanish;
- vaqtinchalik ish maydonlarini daryolar va yer usti suv obyektlaridan uzoqda joylashtirish,
- texnika va uskunalardan foydalanish, yonilg‘i quyish, xavfli materiallarni saqlash va ulardan foydalanish hamda chiqindilarni boshqarishda ilg‘or amaliyotlarni qo‘llash
- materiallarni xavfsiz va himoyalangan holda saqlash, tozalash uskunalari va ishchilar uchun tegishli himoya vositalarini ta’minlash

Ekologik talablariga muvofiqlik Qurilish pudratchisi tomonidan monitoring qilinadi, u yumshatish choralarining samaradorligini tasdiqlash uchun har kuni vizual tekshiruvlar o‘tkazadi. Bundan tashqari, O’MET nomidan faoliyat yurituvchi LAOB tomonidan nazorat tekshiruvlari va auditlar amalga oshiriladi.

4.3 Yer ajratish, majburiy ko‘chirish va iqtisodiy faoliyatga ta’sir

O‘zbekistonda barcha yerlar davlat mulki hisoblanadi. Farg‘ona vodiysining intensiv o‘zlashtirilgan hududida joylashgan mazkur yer maydoni qishloq xo‘jaligi yeri sifatida ajratilgan bo‘lib, unda sug‘oriladigan ekinlar, bog‘lar hamda yarim tabiiy qoplamali hududlar mavjud. Nimstansiya joylashuvi uchun ajratilgan maydon 20,1 gektarni tashkil etadi va u to‘liq podstansiya bilan egallangan (yashil poligon). Kadastrdan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, nimstansiya hududida (o‘lchami 500 × 500 m yashil kvadrat) jami 35 ta yer uchastkasi mavjud bo‘lishi mumkin. Ularning egalari 6 ta xususiy subyekt, Kosonsoy hokimiyati bo‘limi va ayrimlari Milliy zaxira yerlariga ajratilgan. (Rasmning o‘ng tomonida yer uchastkalari qizil rangda ko‘rsatilgan.)

O’METga nimstansiya va doimiy hamda vaqtinchalik kirish yo‘llari (qoplamasiz) uchun yer huquqlari ajratilgan. Mazkur yer ajratishning avvalgi yer foydalanuvchilariga ta’siri baholanadi va Tirikchilikni tiklash rejasida (TTR) ko’rib chiqilib tegishli choralar ko‘riladi.



Yumshatish chorasi: Yer huquqlari va kompensatsiya huquqlari milliy qonunchilik va EIT5 ga muvofiq qayta ko‘rib chiqiladi. Agar milliy baholash usuli va EIT5 talablar o’rtasida har qanday tafovutlar mavjud bo‘lsa, ushbu tafovutlar bo‘yicha yo‘qotishlarni hisoblash va ular uchun kompensasiya to’lash, shuningdek rasmiy yer huquqlariga ega bo‘lgan va bo‘lmagan shaxslar uchun boshqa moliyaviy bo‘lmagan tirikchilikni tiklash choralarini maxsus uchinchi tomon amalga oshiradi va barcha tafovutlar Tirikchilikni Tiklash Rejasida (TTR) ko‘rsatiladi. Bu rejaga aholi bo‘yicha ro‘yxat va so‘rovnomalarni

yakunlash, milliy baholashni o‘tkazish hamda loyiha yakuniy joylashuvi aniqlangach EIT5 prinsiplari bo‘yicha baholash kiritiladi.

4.4 Madaniy merosga ta’sirlar

Loyiha maydoni yoki uning yaqin atrofida YUNESKO Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan moddiy madaniy meros obyektlari joylashmagan. Arxeologik tadqiqotlar Pudratchi tomonidan qurilishdan oldingi bosqichda amalga oshiriladi; biroq maydonda o‘tkazilgan tekshiruvlar natijalariga ko’ra xavf darajasi past deb baholanmoqda.

Yumshatish chorasi – Ishlar milliy talablar va YeTTB EIT 8 ga muvofiq boshlanishini ta’minlash maqsadida, pudratchi tomonidan tasodifiy topilmalar bo‘yicha tartib ham joriy etiladi.

4.5 Ishchilarning salomatligini muhofaza qilish va xavfsizligi

Garchi mehnat qonunchiligi xalqaro mehnat normalari bilan asosiy jihatdan muvofiq bo‘lsa-da, ishchilarning turmush va ish sharoitlari talab qilinadigan standartlardan past bo‘lishi ehtimoli mavjud.

Yumshatish chorasi – Buni boshqarish maqsadida, Loyiha ishchilar va xavfsizlik xodimlari uchun alohida xulq-atvor kodekslarini ishlab chiqadi, shuningdek, Pudratchidan ishchilarning asosiy huquqlarini boshqarish uchun Kadrlar siyosati (qo‘llab-quvvatlovchi rejalar va tartib-qoidalar bilan) amalga oshirilishi talab qilinadi. Bu siyosat, xususan, xilma-xillikni rag‘batlantirish, adolatli ish haqi, dam olish davrlari, kamsitishning oldini olish, ish vaqti tartiblari va ortiqcha ish soatlarini cheklashni o‘z ichiga oladi. Loyihada, shuningdek, barcha pudratchi va uning subpudratchi xodimlarining ishga qabul shartnomasi imzolanishdan oldin ishchiga tushuntirilishi va ishchiga ushbu shartnomaning nusxasi berilishi ta’minlanadi. Mehnat auditi ish haqi varaqalari (ish haqi, ortiqcha ish soatlari va to‘lovlar, ushlab qilingan summalar haqidagi ma’lumotlar) aniq, tushunarli ekanligini ta’minlaydi va ularning to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

4.6 Ishchilarning salomatligini muhofaza qilish, xavfsizligi va yashash sharoitlari

Ish jarayonida ishchilarning salomatligi va xavfsizligini ta’minlash talablariga mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi (MMXT) rejasi orqali belgilanadi va ular ishlarni bajarish ruxsatnomasi tizimi orqali amalga oshiriladi.

Yumshatish chorasi – MMXT rejasi faoliyatga xos xavf tahlillarini o‘tkazish va tegishli xavfsizlik choralarini tayinlash (xavfsizlik nazoratchilari, treninglar va shaxsiy himoya vositalari) talablarini o‘z ichiga oladi. MMXT rejasining samaradorligi muntazam tekshiruvlar, auditlar va monitoring, shu jumladan sog‘liqni monitoring qilish orqali nazorat qilinadi. Barcha ishchilar ishchi shikoyatlarini ko‘rib chiqish tartibidan foydanishlari mumkin — bu jarayon ishchilarga yomon ish sharoitlari yuzasidan tuzatish choralarini ko‘rish yoki kompensatsiya olish imkonini beradi.

Ishchilar mahalliy hududda standart talablariga javob bermaydigan yashash sharoitlarida joylashishi mumkin, bu esa ularning salomatligi va xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Yumshatish chorasi – Har qanday vaqtinchalik yashash joylari milliy standartlar, Kreditor yo‘riqnomalari (ayniqsa, Ishchilarning Yashash Sharoitlari bo‘yicha YeTTB/XMK yo‘riqnomasi) va IXAga muvofiq tanlanadi. Yashash joylari mahalliy jamoalarga eng past ta’sir ko‘rsatadigan tarzda tanlanadi.

4.7 Ijtimoiy ta’sirlar

Loyiha maydoni Namangan shahridan taxminan 8 km masofada joylashgan. Shimolda, loyiha hududidan taxminan 780 metr masofada qishloq xo‘jaligi yerlari mavjud. G‘arbda, taxminan 885 metr masofada Kosonsoy daryosi oqib o’tadi, undan keyin taxminan 1,350 metr masofada Quyuqmozor mahallasi joylashgan. Janubi-sharqda, taxminan 400 metr masofada Bo’ston turar joy hududi, janubda esa maydon qishloq xo‘jaligi yerlariga tutashadi.

Vaqtinchalik ishchilar oqimi (ishlash uchun yoki ish topish umidi bilan kelgan ishchilar) mahalliy infratuzilmaga, masalan, tibbiyot klinikalari, shifoxonalar, bozor va maktablarga bosimni oshirishi mumkin; shunga qaramay, kutilayotgan ishchilar soni hisobga olinsa, bu Loyiha uchun alohida ta’sir sifatida baholanmaydi. Biroq, mahalliy jamoalarda ayrim guruhlar boshqalarga nisbatan xavfga ko‘proq duchor bo‘lishi yoki Loyiha foydalaridan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bular - ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, qariyalar, savodsizlar va yoshlar. Mahalliy jamoalarda genderga asoslangan zo‘ravonlik (GAZ)ning ayrim holatlari aniqlangan (asosan psixologik va hissiy zo‘ravonlik, jismoniy zo‘ravonlikdan ko‘ra). Ishchilarning mahalliy jamoalarga yaqin hududga kirishi GAZ darajasini ishchilar va jamoa a’zolari o‘rtasida oshirish ehtimolini yaratadi.

Yumshatish chorasi – Qurilish pudratchisidan ishchilar va jamoa a’zolarini jinsiy ekspluatatsiya va GAZdan himoya qilish uchun reja/strategiya ishlab chiqish talab qilinadi. Shuningdek, barcha ishchilar Loyiha xulq-atvor kodeksini imzolashlari shart bo‘lib, unda umumiy xulq-atvor bo‘yicha Loyiha talablari aniq bayon qilinadi va GAZ qonunbuzarliklariga mutlaq ruxsat berilmaydi hamda ishdan bo‘shatish choralari ko‘rsatiladi.

5 Loyiha yuqorida keltirilgan yumshatish choralari qanday amalga oshiriladi?

Qurilish bosqichi uchun Loyihaning maxsus majburiyatlari va IXA talablarini o‘z ichiga olgan Ekologik va Ijtimoiy Boshqaruv Rejasi (Q-EIBR) tayyorlanadi. Shuningdek, Loyiha faoliyati davomida Kreditor talablariga muvofiqlikni ta’minlash maqsadida har qanday maxsus Loyiha talablarini belgilash uchun O’MET tomonidan Ekspluatasiya bosqichi uchun Ekologik va Ijtimoiy Boshqaruv Rejasi (E-EIBR) ishlab chiqiladi. YeTTB shuningdek, moliyaviy bitimning asosiy qismi bo‘ladigan Ekologik va Ijtimoiy Harakatlar Rejasini (EIHR) tayyorladi. YeTTB Loyihani ishlab chiqish va qurilish ishlarini nazorat qilish uchun Loyihani amalga oshirish bo’limini (LAOB) tashkil etadi. LAOB tarkibida ekologik va ijtimoiy xavfsizlik bo‘yicha mutaxassis ishlaydi. Loyiha ishga tushirilgach, ekspluatatsiya va texnik xizmat ko‘rsatish ishlari hamda har qanday ekspluatatsiya bosqichidagi ekologik va ijtimoiy talablar uchun javobgarlik bevosita O’MET ekspluatatsiya guruhi zimmasiga o‘tadi. Kreditorning EIHR O’MET va LAOBga qabul qilingan standartlarga mos atrof-muhit va ijtimoiy amaliyotlarni amalga oshirish majburiyatini yuklaydi.

Qurilish Pudratchisi Loyihani ishlab chiqish va qurilish ishlarini nazorat qilish uchun ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimini (EIBT) tashkil etishi shart bo‘ladi. EIBT siyosatlar, baholash hujjatlari, Loyihaning maxsus boshqaruv rejalarini, shuningdek chiqindilarni boshqarish, mehnatni boshqarish, turar joylar bilan ta’minlash, ishga qabul qilish va xarid qilish bo‘yicha asosiy rejalarni o‘z ichiga oladi. EIBTning asosi ISO 14001 Ekologik boshqaruv talablariga moslashtiriladi. Loyiha siyosati Loyiha rejalarining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi va unda Loyiha asosiy qadriyatlari hamda tamoyillari ifodalangan.

Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik bilan bog’liq xavflar Qurilish Pudratchisi tomonidan tashkil etiladigan Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni boshqarish tizimi (MMXBT) orqali boshqariladi va u ISO 45001 - Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasini boshqarish standarti talablariga muvofiq bo‘ladi. Asosiy e’tibor baxtsiz hodisalar va favqulodda vaziyatlarni boshqarishga qaratiladi. Bundan tashqari, tibbiy muassasalardan foydalanishni ham qamrab olgan Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va harakatlanish rejasi (FTHR) tayyorlanadi.

O‘zbekiston talablariga rioya qilgan holda, Loyiha ishchilarni boshqarishda xalqaro standartlarga rioya qilishga majburdir, jumladan, YeTTB va Xalqaro mehnat tashkiloti talablariga muvofiq ish vaqti, ish haqi, ta’til va boshqa jihatlar tartibga solinadi. Shuningdek, bolalar mehnatidan va majburiy mehnatdan foydalanish taqiqlanadi. LXQ Pudratchisi MMXT bo‘yicha ISO 45001 (yoki unga teng bo’lgan) xalqaro sertifikatiga ega bo‘lishi shart. Ishchilarga o‘z ishlarini bajarish bilan bog‘liq, shuningdek turmush va ish sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha zaruriy treninglar beriladi. Ishchilar ishlash davrlari davomida yuzaga kelgan muammolar bo‘yicha shikoyat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi, shu jumladan anonim tarzda va jazolanish xavfisiz. Loyihada xavfsizlik talablari hisobga olingan va xavfsizlik oraliqlari belgilangan. Zarurat tug‘ilganda, panjaralar, belgilalar va boshqa xavfsizlik elementlari o’rnatiladi. O’MET yer ajratish ta’sirlarini boshqaradi va Tirikchilikni tiklash rejasi (TTR) tayyorlanadi; TTRda loyiha ta’siriga uchragan shaxslar uchun tirikchilik tiklash choralari ko’rsatiladi. Mahalliy aholi bilan aloqalar bo’yicha xodim (CLO) aholini Loyiha haqida xabardor qilish maqsadida manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish boyicha keng qamrovli ishlarni olib boradi. Aholi uchun shikoyatlarni ko’rib chiqish mexanizmi ham tashkil etiladi. Ekspluatatsiya va texnik xizmat ko‘rsatish davrlarida barcha javobgarlik O’METga o‘tkaziladi va u nimstansiyani o’z korporativ operatsion tizimlari asosida boshqaradi.

Mahalliy aholi bilan aloqalar bo’yicha xodim (CLO) Loyiha LAOB tarkibida tayinlanadi va mahalliy aholi bilan bog‘lanib, ular bilan doimiy va ochiq muloqot o‘rnatadi; shuningdek, qurilish bosqichi davomida aholining shikoyatlari bo’yicha shikoyatlarni ko’rib chiqish jarayoni yo‘lga qo‘yiladi, va odamlar Loyiha (qurilish yoki ekspluatatsiya) bo‘yicha O’METga ularning e’lon qilingan ishonch telefoni orqali murojaat qilishlari mumkin. Bu haqda kirish qismida aytib o’tilgan.

6 Xulosa

Milliy va Kreditorning ETB larning umumiy xulosalari shuni ko‘rsatadiki, Loyiha samarali va barqaror energiya infratuzilmasi loyihasi bo‘lib, mamlakatni qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tishi va elektr tarmoqni mustahkamlash ehtiyojlari uchun markaziy ahamiyatga ega. 2025-yil yanvar oyida Loyihaning milliy ETB I/II bosqichi tasdiqlandi, shuningdek, Loyiha ishlab chiqish uchun mos deb hisoblanadi va YeTTBning 2024-yildagi ekologik va ijtimoiy Siyosati

talablariga muvofiq bo‘la oladi, bunda EIBda belgilangan va ushbu NTHda umumlashtirilgan tarzda qurilish va ekspluatatsiya bosqichlari uchun EIBR hamda Kreditorning EIHRda aniqlangan zarur yumshatish choralarning amalga oshirilishi shart. Ushbu choralar Loyiha uchun ishchilarga, ta’sirga uchragan jamoalarga va atrof-muhitga salbiy ta’sirlarni oldini olishga, yoki oldini olish mumkin bo‘lmasa, ularni kamaytirishga, yumshatishga yoki kompensatsiya qilishga imkon beradi.

7 Glossariy

Atama	Ta’rif
Biologik xilma-xillik	Barcha manbalardan kelib chiqqan tirik organizmlardagi o‘zgaruvchanlik, jumladan quruqlik, dengiz va boshqa suv ekotizimlari shuningdek, ular tarkibiga kiruvchi ekologik majmualarni o‘z ichiga oladi; bunda tur ichidagi xilma-xillik, turlar o‘rtasidagi xilma-xillik va ekotizimlarning xilma-xilligi ham hisobga olinadi.
Tasodifiy topilmalar	Arxeologik yoki madaniy yodgorliklar va artefaktlar, jumladan sopol buyumlar, asboblar, binolar, qabristonlar va hokazo, dastlabki tadqiqotlarda aniqlanmagan bo‘lib, tadqiqot va qazish ishlari davomida topilgan narsalar.
Maslahatlashuv	Loyiha kompaniyasi va uning manfaatdor tomonlari o‘rtasidagi ikki tomonlama suhbat jarayoni. Manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuv uzoq muddatli va konstruktiv tashqi aloqalarni yo‘lga qo‘yish va davom ettirishga qaratilgan.
Muhim yashash muhiti	Katta biologik xilma-xillik qiymatiga ega o‘zgartirilgan yoki tabiiy yashash muhitlari, masalan, og‘ir xavf ostidagi yoki xavf ostidagi turlarni saqlash uchun zarur bo‘lgan yashash muhitlari
Madaniy meros	Odamlar tomonidan doimiy ravishda rivojlanib borayotgan qadriyatlar, e’tiqodlar, bilimlar va an’analarni aks ettiruvchi va ifodalaydigan resurslar sifatida talqin etiladi.
Yig‘ma ta’sirlar	Mavjud loyihalar yoki faoliyatlar, shuningdek kelgusida rejalashtirilayotgan loyihalar yoki faoliyatlar natijasida yuzaga keladigan bir nechta ta’sirlarning yig‘indisi.
Bevosita ta’sir hududi	Loyihaning jismoniy umumiy hududini o‘z ichiga oladi, masalan, ajratilgan mintaqa, qurilish maydonlari, ishlarni tashkil etish hududlari va ekspluatatsiya jarayonida ta’sirga uchraydigan hududlar (masalan, transport harakati).
Elektromagnit maydonlar	Elektr maydonlari kuchlanish natijasida hosil bo‘ladi va kuchlanish oshishi bilan ularning kuchi ham ortadi. Elektr maydon kuchi volt/metr (V/m) bilan o‘lchanadi. Magnit maydonlar elektr toki natijasida hosil bo‘ladi, elektr toki esa elektr oqimini ifodalaydi, va tok kuchi oshishi bilan ularning kuchi ham ortadi. Elektromagnit maydonlar tesla (T) birliklarida o‘lchanadi.
Chiqindilar	Ifloslantiruvchi moddalar atmosfera havosiga tijorat yoki sanoat obyektlarining tutun quvurlari, boshqa chiqarish teshiklari va ochiq yuzalaridan; turar joy binolarining mo‘rilaridan; shuningdek, avtomobillar, lokomotivlar yoki samolyotlarning chiqindi gazlari orqali chiqariladi.
Ekologik va ijtimoiy ta’sirni baholash (EITB)	Oldindan baholash vositasi bo‘lib, rejalashtirilgan faoliyat amalga oshirilganda yuz berishi mumkin bo‘lgan holatlar haqida qaror qabul qiluvchilarga tavsiyalar berishga xizmat qiladi. Ta’sirlar jamiyat uchun ekologik, siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy ahamiyatga ega o‘zgarishlardir. Ular ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin hamda atrof-muhitga, jamoalarga, inson salomatligi va turmush sharoitlariga, barqaror rivojlanish maqsadlariga yoki bularning barchasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.
Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi (EIBR)	EITB doirasida aniqlangan xavf va ta’sirlarni bartaraf etish va yumshatish bo‘yicha kompaniyaning majburiyatlarini umumlashtiradi, bunga oldini olish, kamaytirish va kompensatsiya choralarini amalga oshirish kiradi hamda bu choralarning bajarilishi nazorat qilinadi.
Ekologik va ijtimoiy	Loyihaning umumiy boshqaruv tizimi tarkibiga kiruvchi qism bo‘lib, unga loyihaning ekologik va ijtimoiy baholash orqali ishlab chiqilgan loyihaga xos

Atama	Ta’rif
boshqaruv tizimi (ESMS)	boshqaruv dasturini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy tuzilma, vazifalar, amaliyotlar va resurslar kiritilgan.
Ilg‘or xalqaro amaliyot (IXA)	Global yoki mintaqaviy miqyosda o‘xshash sharoitlarda Loyiha bilan shug‘ullanuvchi malakali va tajribali mutaxassislardan mantiqan kutilishi mumkin bo‘lgan kasbiy mahorat, ehtiyotkorlik, dono qaror qabul qilish va oldindan ko‘rish qobiliyatini amalda qo‘llash. Natijada loyiha o‘ziga xos sharoitlarda eng mos texnologiyalarni qo‘llashi kerak.
Shikoyatlarni ko’rib chiqish mexanizmi	Ta’sirga uchragan aholining loyihaning ekologik va ijtimoiy faoliyatiga oid shikoyat va muammolarini qabul qilish va ularni hal qilishni osonlashtirish uchun loyiha tomonidan taqdim etilgan tartib.
Yer ajratish	Loyihaning maqsadlari uchun yer olishning barcha usullari, jumladan, darhol to‘lov asosida xarid, mulkni musodara qilish va kirish huquqlarini olish, masalan, servitutlar, o‘tish huquqlari yoki ajratilgan mintaqa.
Tirikchilik	Shaxslar, oilalar va jamoalar tirikchilik qilish uchun foydalanadigan barcha vositalar, jumladan, ish haqi asosidagi daromad, qishloq xo‘jaligi, baliqchilik, yem tayorlash, boshqa tabiiy resurslarga asoslangan faoliyatlar, kichik savdo va barter.
Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi	Ishchilarni ish joyidagi yoki ishni bajarish vaqtida xavf-xatarlardan yoki ish bilan bog‘liq kasallik va jarohatlardan himoya qilishga qaratilgan tadbirlar majmui.
Loyiha ta’siriga uchragan shaxslar	Bevosita yoki bilvosita, shu jumladan yig‘ma ta’sirlar orqali, Loyiha ta’siriga uchragan yoki uchrashi mumkin bo‘lgan shaxslar, ishchilar, guruhlar yoki mahalliy jamoalar.
Manfaatdor tomonlar	Bevosita yoki bilvosita Loyiha ta’siriga uchragan shaxslar yoki guruhlar, shuningdek Loyihaning natijasiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatish yoki Loyihaga qiziqishi bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxslar yoki guruhlar.